

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
Madaniyat vazirligi,
Toshkent shahar madaniyat
bosh boshqarmasi,
viloyatlar madaniyat
boshqarmalariga**

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar
siyosati va sport vazirligi
huzuridagi Yoshlar ishlari
agentligining Qoraqalpog'iston
Respublikasi, viloyatlar va
Toshkent shahar boshqarmasi
boshliqlariga**

**O'zbekiston yoshlar ittifoqining
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
viloyatlari va Toshkent shahar
Kengashi raislariga**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, o'quvchi yoshlarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida "**Kamalak**" yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalini o'tkazish rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan, Sizdan,

- "Kamalak" yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivaliga ishtirok etish uchun ilovadagi Nizom asosida arizalarni qabul qilish joriy yilning **24-oktabrdan 15-noyabr kunlariga qadar**,

- festivalning tuman va shahar bosqichlarini joriy yilning **15-30 noyabr kunlari**;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichlarini 2023 yilning **1-15 dekabr kunlari** yuqori saviyada o'tkazish;

Yoshlar ittifoqi hududiy Kengashlari:

- Bolalar ijodiyoti festivalining mahalliy va hududiy bosqichlarini tashkil etish muddatini hamkor tashkilotlar bilan kelishgan holda belgilash va belgilangan muddatlarda yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlash;

- Festivalning mahalliy va hududiy bosqichlarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilishini ta'minlash bo'yicha media-reja ishlab chiqish;

- Festivalga arizalar qabul qilish, tuman va shahar hamda viloyat bosqichlarining o'tishi yuzasidan kunlik ma'lumotlarni respublika shtabiga tezkor taqdim etib borish;

- Viloyat bosqichining o'tishi yuzasidan bayonnomalarni va g'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlarni joriy yilning **18-dekabr** kuniga qadar O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga taqdim etish;

- Viloyat bosqichi g'oliblarini diplom va esdalik sovg'alar bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

Yoshlar ishiari agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmasi boshliqlari:

- Bolalar ijodiyoti festivalining tuman va shahar bosqichlarining o'tishi yuzasidan ma'lumotlarni ommalashtirish va arizalarni qabul qilish;

- Festivalning mahalliy bosqichlarini belgilangan muddatlarda Nizom (*ilovaga muvofiq*) asosida yuqori saviyada tashkil etish, hududiy bosqichlarini tashkil etilishi yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash va tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish;

- Tuman va shahar hamda viloyat bosqichi g'oliblarini diplom va esdalik sovg'alar bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari:

- Festivalning tuman va shahar hamda viloyat bosqichlarini O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniyat va san'at maktablarida Nizom (*ilovaga muvofiq*) asosida yuqori saviyada tashkil etilishida amaliy yordam ko'rsatish;

- Ishtirokchilarning mahalliy va hududiy bosqichlaridagi ishtirokini shaffof va ochiq baholash uchun sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning hakamlar hay'ati sifatida ishtirokini o'rnatilgan tartibda ta'minlash choralarini ko'rish lozim.

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vaziri
o'rinbosari


M. Madjidov

2023-yil "23" oktabr

03-12-15-7239 son

O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar siyosati va sport
vazirligi huzuridagi

Yoshlar ishlari agentligi
direktori o'rinbosari


D. Kattaxanova

2023-yil "20" oktabr

04-13-21-2963 son

O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi raisi
o'rinbosari,

Respublika "Kamalak"
bolalar tashkiloti raisi


M. Baratova

2023-yil "18" oktabr

04-13/890 son